

## HUDUDLARNI SOLIQ POTENSIALINI BAHOLASH VA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Zokirov Zariffjon Zohidjon o‘g‘li  
Ko‘mir ta’minot MCHJ bosh buxgalter  
Pochta manzili: zokirovzarif094@gmail.com  
tel: 944914933*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va yig‘imlarning amaldagi holati, budgetdan tashqari jamg‘armalarga majburiy ajratmalar, ularni hisoblash tartibi va to‘lash muddatlari hamda davlat budgetining soliqsiz daromadlari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq tizimi, soliqlar, iqtisodiyot, undiriladigan soliqlar, to‘lash muddatlari.

### **KIRISH**

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tadbirkorlikni jadal qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda soliq tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan.

Soliq tizimi, soliqlar - davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha sohalar singari soliq sohasida ham ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan ishlar nafaqat soliqlar va yig‘imlarni undirish orqali, balki soliq qarzdorligini kamaytirgan holda davlat byudjetini to‘ldirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlarining asosiy qismi aynan soliqlar hisobidan shakllanishi bizga ma’lum. Soliqlar belgilangan muddatda va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning ya’ni budget va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida turli mulkchilik shakllarining vujudga kelishi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatini erkinlashtiradi, ushbu holatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga davlatning aralashuvi qonun bilan ya’ni soliqlar orqali amalga oshiriladi. Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari har tomonlama chuqur va puxta o‘ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta’milanadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 640 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati xodimlari mehnatiga Yagona tarif setkasi bo‘yicha haq to‘lash bo‘yicha razryadlar 4 — 7-ilovalarga muvofiq belgilansin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga tegishli qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kirtsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi o‘n kun muddatda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari to‘g‘risidagi nizomlarni;

tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 8-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari 9-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklarining bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, kelgusi yilda “Soliqchi – ko‘makchi” tamoyili asosida tadbirkorlar uchun ularning biznes hamkorining soliq qarzdorligi haqidagi ma’lumotlarni olish imkoniyati yaratiladi” – deya ta’kidladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmonining III yo‘nalishi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”da soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo‘lini davom ettirish, soliq ma’muriyatichiligini takomillashtirish va rag‘batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish keltirib o‘tilgan. Binobarin, soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq yukining pasaytirilishi, orqada qolayotgan sohalarga soliq imtiyozlari berilishi o‘z - o‘zidan ularning soliq qarzlarini kamayishiga ham olib keladi. Shu munosabat bilan soliqlar va yig‘imlarni belgilangan

muddatda hamda to‘liq kelib tushishini ta’minlash vazifasi muhim ahamiyatga egadir. Soliqlarni muddatida to‘lanishinita’minlash esa soliq qarzini imkon qadar paydo bo‘lishini oldini olish va paydo bo‘lgandan so‘ng uni samarali undirish bilan amalga oshiriladi.

Demak, soliq to‘lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlarni paydo bo‘lishini oldini olish hamda soliqlar va yig‘imlarni belgilangan muddatda budjetga kelib tushishini nazorat qilish soliq organlarining e’tibor beriladigan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi hamda bu borasida alohida ilmiy ish olib borilishini taqazo etadi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI**

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydobo‘lishi va faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu o‘rinda soliq kategoriyasi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta’kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Ma’lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya’ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talabetadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo‘yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag‘ bilan ta’minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

«Soliqlar, — deb yozadi D. Rikardo, — hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer mahsuloti va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to‘lanadi».

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o‘z navbatida A. Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma’lum darajada rivojlantirgan.

S.G. Pepelyayev «Soliq — ommaviy hokimiyat subyektlarining to‘lov qobiliyatini ta’minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini

begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilan- gan yagona shaklidir»— deb, ta'kidlagan.

D.G. Chernikning fikricha «Soliqlar — davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi».

S.H. Gataulin «...soliqlar o'zi nima va ular nimaga kerak», degan savolga quyidagicha javob beradi: «Soliqlar — bu davlat sarf-xarajatlarining asosiy manbayi bo'lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi va daromadlarni barqaror-

Mamlakatda soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida soliqlar qarzdorligini vujudga kelish sabablari o'rganishi hamda ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A.Podkolzinning fikriga ko'ra, quyidagi omillar ta'siri natijasida soliq qarzlari vujudga kelishi mumkin:

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy;
- tashkiliy-huquqiy;
- iqtisodiy.<sup>2</sup>

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijtimoiy, siyosiy hamda tarixiy – bunda, ayrim davlatlarning siyosiy faoliyatiga qarshilik va e'tirozlarni kelib chiqishi, soliq madaniyatining shakllanmaganligi va bundan tashqari, boshqa bir qancha ijtimoiy holatlar bilan izohlanishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy – mazkur holatda soliq ma'murchiligi takomillashmaganligi va soliqqa oid huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi, soliq yukini yuqoriligi bilan izohlanadi. Iqtisodiy – bu omil iqtisodiy o'zgarish bilan izohlanadi. Bu asosan 2 guruhga bo'linadi:

birinchi guruh umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi, yetarli darajadagi pul massasining yo'qligi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi yoki xarid qobiliyatining pasayishi;

ikkinci guruh o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldisotdisiga bog'liq bo'lgan holatlar hamda faqat ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo'lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog'liq holatlar bilan izohlanadi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Rus tadqiqotchisi S.Proninning fikriga ko‘ra, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qarzlarining paydo bo‘lishini 3 guruhga bo‘lib o‘rganish lozim:

Iqtisodiy xarakterdagi sabablar o‘z navbatida 3 ta guruhga ajratiladi:

- makroiqtisodiy sabablar jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiyotni beqarorligi (inqiroz), mamlakat va uning ichidagi hududlarning daromad olish bo‘yicha iqtisodiy sohalarini bir xilda rivojlanmasligi, aksariyat soliq to‘lovchilarning ishlab chiqarishdagi rentabellik darajasini tushib ketishi natijasida soliq va to‘lovlarini to‘lay olmasligi, og‘ir moliyaviy holatning yuzaga kelishi, umumiyligi to‘lov intizomini qoniqarsiz darajada ekanligini keltirish mumkin;

- ichki (tarmoq) sohaviy sabablarga iqtisodiyotning yetakchi sohalarida yangi innovatsion siyosatni yuritilmasligini keltirish mumkin. Buning natijasida esa shu sohadagi ishlab chiqarish yangi jihozlar bilan modernizatsiya qilinmay qoladi va ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar) bozorda o‘z o‘rni hamda xaridorlarini yo‘qotadi. Shu sababli, ushbu soha inqirozga yuz tutadi va soliq qarzdorligini kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

- mikroiqtisodiy sabablarga yuridik shaxslarni boshqarishda ichki rahbarlikni qoniqarsizligi, marketingni yaxshi o‘zlashtirmaslik, hamkorlarni tanlay bilmalik va moliyaxo‘jalik faoliyati bo‘yicha buxgalteriya hamda soliq hisobining past darajada yuritilishi, kuchsiz moliyaviy nazoratning o‘rnatilganligini keltirish mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni yuqori bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga ular tomonidan foydani maksimallashtirish nuqtai nazaridan soliq to‘lovlarini rejorashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun ular mustaqil ravishda soliq bazasini turli yo‘llar bilan kamaytirishni ko‘zlamoqdalar.<sup>3</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya’ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo‘lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo‘yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy

<sup>3</sup> Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo‘ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: “Yangi asr avlod” nashriyoti – 2010.(51-b).

xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining“Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarori.
2. Подколзин А.Г. Журнал “Российское предпринимательство” №2 (74) 2016 г.
3. Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организаций. // Тематический спецвыпуск журнала “Горячая линия бухгалтера”. – 2006 г.
4. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office.- 2009. P-27.
5. Tangriqulov A, Xomma A, Toshmatov Sh, Norqo‘ziev I, Roziqov N. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanmasi. – T.: “Yangi asr avlod” nashriyoti – 2010.(51-b).
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
7. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 640 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb sayti: <http://www.soliq.uz> ma’lumotlari.
9. <https://t.me/soliqnews/11590> O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy telegram kanali ma’lumotlari.
- 10.<https://taxing.it/technical-resources-2>.
- 11.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 110-modda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil. – 640 bet